INTERNETNING FOYDALI VA SALBIY OQIBATLARI

Raximova Begoyim Ilyos qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi
raximovabegoyim61@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetdan foydalanishning salbiy va ijobiy taraflari yoritilgan. Inson ongida vujudga keladigan bu axborotning afzalliklari tushuntirilgan. Internet va texnologiyalardan foydalanishning yo‘l-yo‘riqlari ochib berilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda internet sohasida olib borilayotgan yangiliklar haqida atroflicha ma’lumot beriladi. Internetning salbiy va ijobiy oqibatlari misollar orqali ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: texnomatn, texnologiya, kommunikatsiya, nimfobiya, ignomaniya

Abstract. This article highlights the negative and positive aspects of using the internet. The advantages of this information generated in the human mind are explained. Guidelines for using the Internet and technologies have been revealed. Detailed information is given about the news that is being carried out in the Internet sector in Uzbekistan today. Negative and positive consequences of the Internet are shown through examples.

Key words: technotext, technology, communication, nymphobia, ignomania

Абстрактный. В этой статье освещаются отрицательные и положительные аспекты использования Интернета. Объяснены преимущества этой информации, генерируемой в сознании человека. Были выявлены руководящие принципы использования Интернета и технологий. Дана подробная информация о новостях, которые сегодня проводятся в интернет-секторе Узбекистана. На примерах показаны негативные и позитивные последствия Интернета.

Ключевые слова: технотекст, технология, коммуникация, нимфобия, игномания.

Zamonaviy texnologiya va internetning ijobiy tomonlari juda ham ko‘p va u insonlarning internet va texnologiyadan qanday yo‘lda foydalanishiga bog‘liq. Hozirgi zamonaviy dunyoda har kuni kompyuterdan foydalanadiganlar soni juda ko‘p va ularning aksariyati o‘z hayotlarini butunjahon tarmog‘i bo‘lmish internetsiz tasavvur qila olmaydilar, aksincha, uni dunyodagi eng katta yutuq deb hisoblaydilar. Bu bir tomondan to‘g‘ri, chunki insonlar endi kutubxonalarga borishi, u yerda bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni qidirishi yoki kimdir undan foydalanishini kutishi shart emas va, ayniqsa, hozirgi kunda hech kim bir narsani soatlab kutishni xohlamaydi. Ammo, bugungi kunda texnologiya va internet shunchalik rivojlanib bormoqdaki, ular orqali har bir foydalanuvchi o‘zi xohlagan hamma narsani topa olishi mumkin va unda ko‘p vaqt va kuch sarflanmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim va balki hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Axborot texnologiyalari har qanday zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatadigan strategik muhim sanoat hisoblanadi. U alohida shaxslar va umuman jamiyatlarning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni ham yaratadi. Ta’lim jarayonidan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, albatta, o‘qituvchi uchun ham o‘quvchi uchun ham mavzuni tushuntirish va tushunishda juda samarali va qulay. Masalan, dars jarayonini oddiy tushuntirishdan va doskada bo‘r orqali yozishdan ko'ra kompyuterdan slaydlarni namoyish etib o‘quvchilarda tasavvur uyg‘otish, o‘yin texnologiyalari bilan ularni qiziqtirish orqali o‘qitish ancha foydali bo‘ladi va mavzu haqida tasavvurga ega bo‘linganligi uchun xotirada uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Shu bilan birga, kompyuter va Internetga qaramlik kattalar va bolalarga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ammo, internet ko‘plab foydali jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot iste’moli madaniyatining pastligi, turli xabarlar oqimidan

kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi ba’zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta’siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Texnologiya eng rivojlangan davlatlardan bo‘lmish Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e’tirof etilganligi va uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilganligi buning yorqin isboti bo‘la oladi. Yoshlarning juda ko‘pchiligining internetga qaramligi butunjahon dunyoda global muammo bo'lib ulgurgan.[1]

Inson umrini bo‘lib chiqsak uxlashdan tortib qachon yuvinishimizgacha olimlar o’rtacha umriga nisbatan bo’lib hisoblab chiqishgan oldinlari bu statistikaga internet kiritilmagan edi endi esa bu kiritilishi aniq va ravshan, chunki inson hozirgi zamondan internetga ketqazadigan vaqti hattoki oila a’zolari, do‘stlariga ajratadigan va ketqazadigan vaqtidan hech ham qolishmaydi va bu natija borgan sari oshib bormoqda. Hattoki yangi kasallik nimofobiya – internetsiz qolishdan qo‘rqish kasalligi ham paydo bo‘ldi. Shu bilan birga ko‘pgina yoshlar orasidagi odatlarga hattoki nom ham beriladigan bo‘ldi misol uchun: “ Igromaniya“ [2]– bu kompyuterdan o‘rin olgan turli xil o‘yinlarga mukkasidan ketishdir. Biz bu dunyodan nomsiz o‘tib ketishdan yoki yaqinlarimiz, davlatimizga foydamiz tegmasligidan qo‘rqqanimizda edi balki yana ham ko‘p o‘z ustimizda ishlagan bo‘lar edik. O‘g‘ri deganda bir nimani o‘g‘irlaydigan qora kiyim kiyib, niqob taqgan beysbol tayoqchasini ko‘tarib olgan shaxsni tushunamiz yoki kinolarda ko‘rgan katta banklarni, muzeylarni tunaydigan o‘g‘rilar to‘dasini tushunamiz . Lekin XXI asrda shunday o‘g‘ri dunyoga keldiki uni na qalin devorlar va na kuchli armiya ham to‘xtatib qololmaydigan bo‘ldi. Albatta bunga o‘zimiz sababchimiz. Bu o‘g‘ri internetdir!

Agar unga imkon bersak bizning hayotimizni, umrimizni, umidlarimizni, erkimizi hatto hayollarimizni o‘g‘irlashi aniq shuning uchun biz ham juda ehtiyotkor

[1] Yu.D. Babaeva, Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari / “Psixologik jurnal”, E 1, 1998, 88-100-betlar.
[2] https://multiurok.ru/files/internetning-salbiy-va-ijobiy-tomonlari.html

va undanda aqilli bo‘lishimiz va u bizning umrimizni o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur . Vaqt umr o‘g‘risi deyishadi u to‘xtamaydi tez yoki sekin, ha to‘g‘ri tushundingiz sekin vaqt har doim ham tez bo‘lmaydi uni tez yoki sekin qilish o‘zimizga bog‘liq shu kungacha bizning umrimiz vaqtga bog‘liq edi va endi internet ham bu safga qo‘shildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804

2. Yu.D. Babaeva, Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari / “Psixologik jurnal”, E 1, 1998, 88-100-betlar.

3. Zimbardo F., Leippe M. Ijtimoiy ta’sir. - Sankt-Peterburg: “Peter” nashriyoti, 2000, s

4. Mirzaali o’g’li, A. J., Shodiqul o’g’li, X. I., Eminjon o’g’li, S. X., Aliqul o’g’li, N. B., & Begzod o’g’li, M. M. (2022). Importance of medical prevention in medicine. Texas Journal of Medical Science, 13, 175-176.

5.Mirzaali o’g’li, A. J., Shodiqul o’g’li, X. I., Fozil o’g’li, N. A., Eminjon o’g’li, S. X., & Aliqul o’g’li, N. B. (2022). ANESTHESIA AND ITS GENERAL CHARACTERISTICS. Gospodarka i Innowacje., 28, 191-192.

6. https://multiurok.ru/files/internetning-salbiy-va-ijobiy-tomonlari.html